O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUXORO VILOYATI HOKIMINING
QARORI

200118. Buxoro viloyati, Buxoro shahri, I.Mo’minov ko’chasi 1-uy. Tel.:(365) 224-34-85, Faks: 223-05-95 e-mail: info@buxoro.uz, buxoro@exat.uz

2024 - yil 13 - yanvar 20-2-0-Q/24 Buxoro viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 9-yanvardagi PQ-8-sonli “Tadbirkorlik subyektlari tomonidan davlat organlariga hisobot va statistik ma'lumotlarni taqdim etish jarayonlarini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta'minlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 9-yanvardagi PQ-8-sonli “Tadbirkorlik subyektlari tomonidan davlat organlariga hisobot va statistik ma'lumotlarni taqdim etish jarayonlarini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 9-yanvardagi PQ-8-sonli “Tadbirkorlik subyektlari tomonidan davlat organlariga hisobot va statistik ma'lumotlarni taqdim etish jarayonlarini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qaqoqi bilan:

Adliya vazirligi va Statistika agentligining 2024-yildan boshlab tadbirkorlik subyektlaridan talab qilinadigan, o‘zaro bir-birini takrorlovchi va davlat organlarining boshqa organlardan olish imkoniyati mavjud bo‘lgan hisobot va statistika ma'lumotlarini (keyingi o‘rinlarda - hisobot) 1-ilovaga muvofiq bekor qilish to‘g‘risidagi taklifi ma'qullanganligi;

Davlat organlari va tashkilotlari o‘zlarining axborot tizimlaridagi ma'lumotlarning tegishli sohani tartibga soluvchi davlat organlariga ularning murojaatlari asosida belgilangan tartibda taqdim etishi;

Quyidagi tartib o‘rnatilganligi:

a) davlat organlari va tashkilotlari tadbirkorlik subyektlari tomonidan topshiriladigan hisobot turlarini hamda ulardagi ma'lumotlarni quyidagilar orqali maqbullashtirish choralarini ko‘rib borishi:

davlat organlari va tashkilotlari o‘rtasida raqamli hukumat tizimi doirasida ma'lumotlar almashishni kengaytirish;

sohaga axborot texnologiyalarini keng joriy etish orqali ma'lumotlarning avtomatik tarzda shakllanishini yo‘lga qo‘yish;

b) davlat organlari va tashkilotlari har yili 1-sentabrga qadar Statistika agentligiga hisobot turlarini maqbullashtirish bo‘yicha takliflarni kiritib borishi;

d) Statistika agentligi har yili 1-dekabrga qadar davlat organlari va tashkilotlari tomonidan taqdim etilgan takliflar asosida hisobot turlarini maqbullashtirish choralarini ko‘rishi;

tadbirkorlik subyektlari tomonidan davlat organlariga taqdim etiladigan hisobot va statistik ma'lumotlarning yagona ro‘yxati (keyingi o‘rinlarda - yagona ro‘yxat) 2-ilovaga;

tadbirkorlik subyektlari uchun hisobot va statistik ma'lumotlarni taqdim etish jarayonlarini soddalashtirish buyicha ishchi guruh tarkibi 3-ilovaga;

yagona hisobotlar tizimini ishlab chiqish va ishga tushirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Viloyat statistika boshqarmasi (U.Djumanazarov) tegishli viloyat korxona va tashkilotlar rahbarlari bilan birgalikda:

mazkur qaror bilan belgilab berilgan, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga oid statistik hisobot va ma'lumotlarni avtomatik tarzda tegishli tashkilotlardan elektron tarzda qabul qilish;

1-ilovaga muvofiq bekor qilinayotgan statistik hisobot va ma'lumotlarni tadbirkorlik subyektlaridan talab qilmaslik choralarini ko‘rsin.

4. Viloyat statistika boshqarmasi (U.Djumanazarov), viloyat teleradiokompaniyasi (O.Shabanov), “Buxoronoma” va “Бухарский вестник” gazetalari tahririyati (Sh.Sulaymonov)ga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarorining mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qaror ijrosining nazorati viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari B.Axmedov zimmasiga yuklatilsin.

Buxoro viloyati hokimi **B.K.Zaripov**